

UDK:332

Ergashev R.X.

QarMII professori, i.f.d.,

Qosimov Jahongir-Qarshi DU, Ph.D

QISHLOQ XO'JALIGINING MEVA-SABZAVOTCHILIK YO'NALISHLARIDA KLASSTER-KOOPERATSIYALARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish yo'nalishlarida klasterlarni tashkil etishdagi muammolar va ularning yechimi hamda istiqbolda meva-sabzavot mahsulotlar klasterlarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: meva-sabzavot, klaster, eksport, meva-sabzavot bozori, raqobat,, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash, saqlash, kooperatsiya

Annotatsiya *V state posvyayena razvitie rynek plodo ovouchnoy produkcii i problemy organizatsiii yee reshenie klasternoy sistema proizvodstva prduksii plodo ovouchnoy produkcii.*

Klyuchevye slova: *ploda- ovouzey, klaster, eksport, rynek ploda ovouzey, konkurentosposobnost, selskogo xozyaystva, pererabotka, xranenie , kooperatsiya*

This article is devoted to the problems of organizing clusters in the field of fruit and vegetable production and their solutions, as well as the development of fruit and vegetable clusters in the future.

Keywords: *fruit and vegetable, cluster, export, fruit and vegetable market, competition, agriculture, processing, storage, cooperation*

Kirish. Jahon iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, jumladan, meva-sabzavotchilik sohasi aholini oziq-ovqat mahsulotlari, qayta ishlash sanoatini xom ashyo bilan ta'minlashda alohida o'rin egallaydi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, jahon aholisining so'nggi 20 yil ichida meva-sabzavotchilik mahsulotlariga bo'lgan talabi yiliga o'rtacha 5-7 foizga o'sib bormoqda. Ushbu meva-sabzavotchilik sohasining rivojlanishiga va kengayib borishiga qaramay, amaliyotda ularni meva-sabzavotchilik kooperatsiyalari agroklastlarlar, dehqon va fermer xo'jaliklari, shuningdek integratsiya tizimlari faoliyatlarida keng foydalanish bo'yicha ilmiy va amaliy yondashuvlar yetarli darajada rivojlanmagan. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash hamda eksport qilish bo'yicha ushbu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarning kooperatsiyasi va klasterlarini rivojlantirish zarurati borligini ko'rsatmoqda. Shularni hisobga olib, global iqlim o'zgarishiga moslashgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, xususan, meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish, aholinisifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan muntazam ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarni, jumladan, meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va ularni saqlash, jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish orqali eksport hajmi va geografiyasini kengaytirishda meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasining tashkiliy-iqtisodiy asoslari kabi masalalarga dolzarb ahamiyat berilmoqda. «...hududlarda 110 ta meva-sabzavotchilik kooperatsiyalari va 35 ta g'allachilik klasterlari faoliyatini yo'lga qo'yish»¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi kuchli raqobat sharoitida meva-sabzavotchilik kooperatsiyalari va agroklastlarlari bo'yicha ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagi "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5388 va 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. // Yangi O'zbekiston. 2022 yil, 1 fevral, №22 (544).

rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonlari hamda 2018 yil 17 oktabrdagi "Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chor-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3978, 2018 yil 14 martdagi «Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4232, "Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 23 noyabrdagi PQ-20 sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 iyundagi "Uzumchilikni rivojlantirish klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab -quvvatlashning qo'shimchachora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5200 va 2021 yil 15 dekabrda "Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab -quvvatlash, tarmoqga klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-52-sonli qarorlari meva-sabzavotchilik faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzu oid adabiyotlar sharhi. Meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasi masalalari ko'plab xorijlik olimlarning, xususan, A.V.Chayanov, I.N. Buzdalov, T.Buzina, N.Kuznesova, I.Minakov, V.Volodin, L.Antonenko¹ kabi va boshqa agrar soha iqtisodchi olimlari ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasi masalalari Allaxverdiev A.I., N.V.Yermalinskaya, Ye.A. Kojevnikov, I.I.Chayka, Yu.M.Sapego, I.M.Lifis kabi olimlar tadqiqotlarida o'rganilgan

O'zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasining umumiy muammolarini o'rganish bo'yicha mahalliy olimlarimizdan R.M.Xusanov, Q.A.Choriev, O'P.Umurzakov, S.Eshmatov, T.H.Farmonov, N.S.Xushmatov, O.Jumaev, X.S.Xushvaqtova, R.X.Ergashev, Sh.M.Murodov va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar

Shu bilan birga, meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasining tashkiliy-iqtisodiy asoslari masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Ushbu holat mazkur yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi, hamda maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida meva-sabzavotchilik mahsulotlari kooperatsiyasining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.


Tadqiqotning usullari. Muqolada tizimli yondashuv, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, monografik kuzatuv, statistik guruhlash, matematik modellash, SWOT-tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Meva-sabzavotchilik mahsulotlari kooperatsiyasi-barcha ishtirokchilar uchun o'zaro foyda va har kimning manfaatlarini qondirish asosida resurslarni kamroq sarflash bilan umumiy maqsadga erishish uchun sheriklar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda o'z hamkorligi ma'nosida namoyon bo'ladigan iqtisodiy hodisadir.

Meva-sabzavotchilik klasteri- bitta geografik hududda o'zaro bog'liq korxona va tashkilotlarni alohida bir tarmoq doirasida birlashtirishyoki birorta jarayonni yaxlit holda samarali amalga oshirish uchun, bir qancha o'zaro bog'liq bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning alohida bir soha doirasida birlashishi tushuniladi.

Maqolada kooperatsiyaning iqtisodiy mohiyatiga berilgan ta'rifga tayangan holda meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasi sohasida faoliyat yurituvchi kooperativlarni quyidagicha tasniflash mumkin (1-rasm):

¹ Chayanov.A.V. Osnovnye idei i formy organizatsii sel'skoxozyaystvennoy kooperatsii. – Moskva. -1927. - 357b. Buzdalov.I.N. Vozrojdenie kooperatsii. – M.: Ekonomika.-1990. –81 b. Buzina T.S. Optimizatsiya vzaimodeystviya uchastnikov v regionalnykh agropromyshlennnykhklasterax / T.S. Buzina, Ya.M.Ivano. – Irkutsk: Izdatelstvo Irkutskiy GAU, 2015. – 148 s.;Kuznesova N.A. Razvitie integratsionnykh protsessov v agropromyshlennom komplekse regiona:monografiya. – Saratov: Saratovskiy sotsialno-ekonomicheskii institut (filial) REU im.G.V.Plexanova, 2017. – 84 s.; Minakov I.A. Razvitie integratsionnykh protsessov v agropromyshlennom komplekse: Monografiya / I.A.Minakov–Michurinsk: Izd-vo Michurinskogo GAU, 2016. – 191s.; Volodin V.M., Dubova L.N. i dr. Kooperatsiya i integratsiya v APK: uchebnik dlya VUZov; pod obsh.red. V.M.Volodina. – Penza, 2005. – 244 s.: il. – Bibliogr.: s. 189-198.; Antonenko L.A. Kooperativy v preodolenii mirovogo ekonomicheskogo krizisa: retrospektivnyy analiz proshlogo./ ByuletenMijnarodnogo Nobelivskogo yekonomichnogo forumu. 2012. № 1 (5). Tom 2. – s 11-18.



1 -rasm Meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasi sohasida faoliyat yurituvchi kooperativlarning tasniflashi

Ishlab-chiqarish va texnika munosabatlari bo'yicha koopera-tivlar– ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimini kiritish mumkin.

Ijtimoiy munosabatlari bo'yicha kooperativlar – turli kategoriyadagi xodimlar o'rtasida ularning huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar hisoblanadi.

Moliyaviy-iqtisodiy munosabatlari bo'yicha kooperativlar– tarmoqning mustaqil bo'g'ini bo'lib, o'z-o'zini moliya bilan ta'min-lash, o'z-o'zini boshqarish, ya'ni bozor munosabatlari tamoyillarida faoliyat yuritadi. *Mulkchilik shakli bo'yicha kooperativlar* – tarkibiga aralash mulkchilik asosida ta'sichilar tomonidan tashkil etilgan kooperativlar; to'liq xususiy mulkchilik asosida tashkil qilingan kooperativlar; davlat xususiy sherikligi tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi kooperativlarni kiritish mumkin

Meva-sabzavotchilikning kooperatsiyasining samaradorligini oshirish quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi zarur (2-rasm).Xuddi shunday metodika bo'yichaboshqa turdagi mahsulotlarning iqtisodiy integratsiyalashgan samaradorligini aniqlash mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar jarayonida meva-sabzavotchilik mahsulotlarga ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini baholash metodikasi ishlab chiqildi.Meva-sabzavotchilik faoliyat sohalari bo'yicha agrosanoat ishlab chiqarish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni samaradorligini baholash ko'rsatkichlari

Indikatorlar	Ko'rsatkichlar
1. Integratsiyalashgan ishlab chiqarish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari:	
Yalpi va sof daromad; hisobot davridagi foyda, sotishdan olingan foyda;sof foyda; rentabellik darajasi; xarajatlarni tejash darajasi,asosiy vositalar rentabelligi va boshqalar.	
2. Meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari:	
Yerdan foydalanish	Yalpi (tovar) mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, foyda, sof foyda, ekin maydoni, ekin hosildorligi va boshqalar.
Ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish	Fond qaytimi, fond sig'imi, kapital intensivligi, aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti, aylanma mablag'larning aylanishi davomiyligi, materialsig'imi.

Mehnat resurslari foydalanish	Yillik, kunlik va soatlik ish bajarish, mehnat va mahsulot sig'imi, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va boshqalar.
Meva sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish	Tovar mahsulotlar-ekinlar hosildorligi, 1 tonna mahsulot uchun mehnat sarfi, 1 tonnamahsulotlarni sotishdan olingan foyda, 1 gektarerdan olingan foyda, rentabellik darajasi.
3. Meva-sabzavot mahsulotlari xom ashyosiniqayta ishlash samaradorligini baholash ko'rsatkichlari:	
Yakuniy mahsulot birligiga xom ashyo sarfi, yakuniy mahsulot chiqishiga meva-sabzavot xom ashyosi birligi, 1 tonna mahsulot ishlab chiqarish uchun xarajatlar, sotishdan olingan foyda, sof foyda va rentabellik darajasi.	
4. Meva-sabzavot mahsulotlarinisqlash samaradorligini baholash ko'rsatkichlari:	
Saqlash sig'imidan foydalanish koeffitsientlari, yo'qotishlar nisbatisaqlanayotgan mahsulotlar hajmida, moddiy-texnik xarajatlar, mahsulot birligini saqlash xarajatlari, sotishdan olingan daromad, saqlashdan keyingi olingan foyda va rentabellik darajasi.	
5. Meva-sabzavot mahsulotlarisotish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari:	
Meva-sabzavot mahsulotlarini sotishdan tushgan tovar aylanmasi hajmi, o'rtacha bir xodim uchun ishlagan soat, bajarilgan ishning mehnat sig'imi va mahsulotlarni sotish sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar; bir birlik mahsulot tannarxi; o'rtacha bir xodimga to'g'ri kelgan foyda.	

Ushbu jadval materiallaridan meva-sabzavot mahsulotlari samaradorligini baholash metodikasi taklif etilgan bo'lib, integratsiyalashgan ishlab chiqarish alohida bosqichlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash yakuniy mahsulot ishlab chiqarish (meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish, xom ashyo, tayyor mahsulotni saqlash, qayta ishlash va sotish).

Tahlil va natijalar. Maqolada meva-sabzavotchilik mahsulotlarikooperatsiyasi va uni rivojlantirish masalalari, samaradorligini baholash ko'rsatkichlari hozirgi holati tahlili va samaradorligini oshirish imkoniyatlari ishlab chiqilgan.

Olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, respublikada sabzavot etishtirish miqdorlari 2005-2021 yillarda barcha toifadagi xo'jaliklar bo'yicha o'sgan (3-jadval). Sabzavot mahsulotlari ekin maydonlari 2005 yildagi 137,7 ming gektar o'rniga 2021 yilga kelib 235,6 ming gektarni tashkil qilgan va ushbu yillar davomidagi o'sish 1,1 foizga teng bo'lgan. O'rtacha hosildorlik esa mos ravishda 215,8 sentnerdan 308,3 sentnerga ortib, umumiy o'sish 142,9 foizni tashkil qilgan. Natijada yetishtirilgan yalpi hosil miqdori 2005 yildagi 2971,6 ming tonna o'rniga 2021 yilda 7363,5 ming tonnanitashkil qilgan va yalpi o'sish 2,5 martadan ortiqni tashkil qilgan.

3-jadval

Respublika va Qashqadaryo viloyati bo'yicha sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlari o'zgarishi dinamikasi (barcha toifadagi xo'jaliklarda)¹


Ko'rsatkichlar		Yillar bo'yicha								2021 yilda 2005 yilga nisbatan (%)
		2005	2010	2015	2017	2018	2019	2020	2021	
Respublika bo'yicha	Ekin maydoni (ming ga)	137,7	173,0	194,1	208,3	209,7	213,6	220,5	235,6	171,1
	Yalpi hosil, (ming tonna)	2971,6	6346,4	1028,1	11433,6	6129,5	6481,2	6650,3	7363,5	247,8
	Hosildorlik, (s/ga)	215,8	252,5	277,2	297,1	292,3	303,4	301,6	308,3	142,9
Qashqadaryo viloyati	Ekin maydoni (ming ga)	28,1	28,6	29,1	34,6	24,6	36,2	38,1	43,2	153,7
	Yalpi hosil, (ming tonna)	549,3	559,6	579,1	685,9	434,0	780,1	810,3	1081,3	196,9
	Hosildorlik, (s/ga)	195,4	195,6	199,0	198,2	176,4	215,4	212,7	250,3	128,1
Qashqadaryo viloyati hosildorligi	(%)	90,5	77,5	71,8	66,7	60,3	71,0	70,5	81,2	x
	(+, -)	-20,4	-56,9	-78,2	-98,9	-115,9	-88,0	-88,9	-58,0	x

¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari ishlab chiqilgan.

Respublika ko'rsatkichiga nisbatan										
--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Qashqadaryo viloyatidagi bog'lar hosildorligiga e'tibor beradigan bo'lsak, natijalar juda past. Jumladan, viloyat bo'yicha barcha toifadagi xo'jaliklarda 2005 yilda 75,6 sentnerdan hosil olingan bo'lsa, keyingi yillarda oshib borgan bo'lsada 2021 yilga kelib 115,8 sentnerdan o'rtacha hosil olishga erishilgan.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyati bo'yicha meva yetishtirishning asosiy ko'rsatkichi bo'lgan ekin maydonlari yildan yilga ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida 2021 yilda meva yetishtirishning ekin maydoni 305,8 ming gektarni tashkil etib 2005 yilga nisbatan 97,5 ming gektarni tashkil etdi va Qashqadaryo viloyati bo'yicha ushbu ko'rsatkich 8,8 ming gektarga oshdi (1-digramma).




1-digramma. O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyati bo'yicha meva yetishtirishning ekin maydoni o'zgarishi dinamikasi (barcha toifadagi xo'jaliklarda)¹

Tadqiqot natijasi tahlillari ko'rsatishicha, Qashqadaryo viloyatida 2005-2021 yillar mobaynida meva-sabzavot hosildorligi o'sib borgan. Jumladan, tadqiq qilinayotgan yillarda sabzavot ekinlari hosildorligi Qashqadaryo viloyati bo'yicha barcha toifadagi xo'jaliklarda o'rtacha 195,4 sentnerdan, 250,3 sentnerga yoki 128,1 foizga ortgan bo'lsa, bog'lar hosildorligi 2005 yildagi 75,6 sentner o'rniga 2021 yilda 115,8 sentnerni tashkil qilib, o'sish 153,2 foizga teng bo'lgan.

Ayni paytda fermer xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklarida hamda tomorqa yer egalarida turlicha hosildorlik ko'rsatkichlari va o'zgarish dinamikasi kuzatilishi mumkin. Tadqiqot natijasi tahlillariga ko'ra, 2005-2021 yillar mobaynida Qashqadaryo viloyatining meva-sabzavot hosildorligi o'sib borgan. Jumladan, o'rganilayotgan yillarda sabzavot ekinlari hosildorligi Qashqadaryo viloyati bo'yicha barcha toifadagi xo'jaliklarda o'rtacha 195,4 sentnerdan, 250,3 sentnerga yoki 128,1 foizga ortgan bo'lsa, bog'lar hosildorligi 2005 yildagi 75,6 sentner o'rniga 2021 yilda 115,8 sentnerni tashkil qilib, o'sish 153,2 foizga teng bo'lgan. Ayni paytda fermer xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklarida hamda tomorqa yer egalarida turlicha hosildorlik ko'rsatkichlari va o'zgarish dinamikasi kuzatilishi mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda meva-sabzavot mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun meva-sabzavot mahsulotlarini baholash ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (3-rasm)

¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



3-rasm. Meva-sabzavot mahsulotlarini baholash ko'rsatkichlari¹

Meva-sabzavot mahsulotlarini baholash ko'rsatkichlarini besh bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqichda, ya'ni meva-sabzavot yetishtirish, meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash meva-sabzavot mahsulotlarini sotish va meva-sabzavot

¹ Muallif ishlanmasi

kooperatsiyasi bosqichlarida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlar an'anaviy va kooperatsiya usullarida aniqlangan.

5-jadval

Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasi va uning samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tahlili (2021yil)¹

№	Ko'rsatkichlar	Usullar		Farqi (+; -)
		An'anaviy*	Kooperatsiya**	
1. Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish:				
1.1	Ishlab chiqarish xarajatlari (mln. so'm)	192,7	1280,0	1087,3
1.2	Maxsulot sotish hisobidan olingan tushum sifat va muddatlilik tamoyilini hisobga olgan holda (mln. so'm)	480,3	5184,0	4703,7
1.3	Foyda, (+) (mln. so'm) Zarar (-) (mln. so'm)	287,6	3904,0	3616,4
1.4	Rentabellik darajasi %	149,2	305,0	2,0 marta oshgan
2. Meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash:				
2.1	Mahsulotlarni saqlash quvvat (tonna)	80,0	720,0	640
2.2	Mahsulotlarni saqlashdagi yo'qotishlar (tonna)	1,2	11,5	10,3
2.3	Mahsulotlarnisaqlash xarajatlari, mln. so'm.	3,2	36	32,8
2.4.	Mahsulotlarni saqlashga qo'yilgan mahsulot qiymati (mln so'm)	320,0	3600,0	3280
2.5	Mahsulotlarni jami saqlash xarajatlari va meva-sabzavotmahsulotlarning qiymati (ming so'm)	323,2	3636,0	3312,8
2.6	Sotilgan mahsulotlar va sotish davrida yo'qotishlarni hisobga olgan holdatonna	78,8	708,5	629,7
2.7	Sotilgan mahsulotlar qiymati va saqlash, sifatini va sotish muddatlarini hisobga olgan holda, ming so'm	630,4	10627,5	9997,1
2.8	Mahsulotlarni saqlashdan olingan foyda, ming so'm	307,2	6991,5	640
2.9	Rentabellik darajasi %	95,0	192,3	2 marta oshgan
3. Meva-sabzavot mahsulotlarni qayta ishlash:				
3.1.	Qayta ishlangan mahsulotlar tonna	40	160	120
3.2	Mahsulotlar xom ashyo qiymati sotish muddatini hisobga olgan holda, mln so'm.	60,0	208,0	148
3.3	Tayyorlangan sharbatlar tonna	12,0	48,0	36

¹ Izoh. *Yakkabog' tumani "Qayumov Salim Zafar o'g'li" fermer xo'jaligi, **Kitob tumani "Panji Kishmishzorlar" kooperativi ma'lumotlarida asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

3.4	Qayta ishlash xarajatlari (xom ashyodan tashqari), mln so'm.	21,1	84,4	63,3
3.5	Sharbat ishlab chiqarish xarajatlari xom ashyo xarajatlarini hisobga olgan holda mln so'm	81,1	292,4	211,3
3.6	Ulgurji narxlarda sharbat qiymati, mlnso'm	192,0	768	576
3.7	Qayta ishlashdan olingan foydaming so'm	110,9	475,6	364,7
3.8	Rentabellik darajasi, %	136,7	162,6	1,19 marta oshgan
4. Meva-sabzavot mahsulotlarini sotish				
4.1.	Yangi mahsulotlar sotishi mo'ljallangan qismi, ming tonna	38,8	548,5	509,7
4.2.	Mahsulotlarni sifat va sotish muddatlari bo'yicha mahsulotlar qiymati, mln so'm	620,8	8776,0	8155,2
4.3	Mahsulotlarni sotish xarajatlari mln so'm.	19,8	279,7	259,9
4.4.	Mahsulotlarning chakana narxi sotish muddatlari bo'yicha mln so'm	310,4	4388,0	4077,6
4.5	Mahsulotlarning sharbatini sotish xarajatlari ming so'm	3,4	9,6	6,2
4.6	Mahsulotlarning sharbatining chakana narxdagi qiymati	168,0	672,0	504
4.7	Mahsulotlarning sotishdan olingan foyda yoki zarar, mln so'm	374,1	4478,3	4104,2
4.8	rentabellik darajasi, %	51,6	769,8	14,9 marta oshgan
5. Meva-sabzavot kooperatsiyasi				
5.1	Yakuniy mahsulot qiymati, mln. so'm	478,4	5060,0	4581,6
5.2	Mehnat unumdorligi (o'rtacha bir kishiga ishlab chiqilgan mahsulot), mln. so'm	68,3	88,8	20,5
5.3	Fond qaytimi bir so'm asosiy vositaga yakuniy mahsulotning nisbati	1,51	1,62	0,11
5.4	Tarmoqlararo mahsulot tannarxi, ming so'm	540,2	1689,7	1149,5
5.5	Jami foyda, mln. so'm	238,2	3370,3	3132,1
5.6	Kooperatsiyaning rentabellik darajasi, %	99,6	199,4	2 marta oshgan

Xulosa va takliflar. Maqolada tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar quyidagilardan iborat:

1.Olib borilgan tadqiqotlar natijasida kooperatsiya jarayonining nazariy-ilmiyasoslari shakllanish va rivojlanish davridagi turli qarashlarga va uning bugungi kundagi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish yo'nalishida bajarayotgan vazifalariga asoslanadigan bo'lsak, meva-sabzavotchilik mahsulotlari kooperatsiyasi tizimi iqtisodiy mohiyatiga bizning nazarimizda o'ziga xos-xususiyatlarni inobatga olish kooperatsiya-bu ko'p odamlar bir xil yoki turli xil, o'zaro

bog'liqlik, mehnat jarayonlarida birgalikda ishtirok etadigan maxsus mehnat shaklidir. Tadqiqotlar natijasida kooperatsiya- bu barcha ishtirokchilar uchun o'zaro foyda va har kimning manfaatlarini qondirish asosida resurslarni kamroq sarflash bilan umumiy maqsadga erishish uchun sheriklar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda o'z hamkorligi ma'nosida namoyon bo'ladigan iqtisodiy hodisadir. Kooperatsiyadan ko'zlangan asosiy maqsad qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga o'z iqtisodiyotini rivojlantirishda yordam berish va samaradorlikni oshirishdan iborat degan xulosaga kelindi.

2. Bizning fikrimizcha meva-sabzavotchilik mahsulotlari kooperatsiyasi - hamkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari kooperativlarni yaratish tartibini, ularning huquqiy va tashkiliy shakllarini, resurslarni taqdim etishda ishlab chiqarish, munosabatlarni tashkil etish tartibini, mahsulot marketingini, soliq tizimlarini, davlat va kooperativlar o'rtasidagi munosabatlarni, kooperativlarni o'zaro munosabatlarni, mulkni begonalashtirishga qarshi huquqiy kafolatlarni mustahkamlashni belgilovchi qonunlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar majmui sifatida tushunilishi kerak.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, meva-sabzavot mahsulotlarini kooperatsiyasini tashkil etish va shakllanish tamoyillari asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda, shu jumladan meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishda, qayta ishlash va saqlashda "klaster", "kooperatsiya", "kooperativ" tushunchalarining takomillashgan mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Xususan, taqqoslama tasniflanishi bilan farqlanishi hamda afzalliklari va ularni tashkil etish va shakllanish tamoyillari ehtiyojini to'raligicha yuqori saviyada qondirishga qaratilgan va ularga kam xarajatlar bilan tegishli darajada moddiy va ma'naviy jihatdan naf keltiradigan nuqsonsiz xizmatlar majmuasi ishlab chiqildi.

3. Meva-sabzavot mahsulotlarining samaradorlik ko'rsatkichlari texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorlik turlariga ajratilgan holda meva-sabzavotchilik mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligining mezon va ko'rsatkichlar orqali ifodalash mumkinligi asoslandi.

4. Olib borilgan tadqiqotlar jarayonida meva-sabzavot mahsulotlari samaradorligini baholash metodikasi taklif etilgan bo'lib, integratsiyalashgan ishlab chiqarish alohida bosqichlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash yakuniy mahsulot ishlab chiqarish meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish, xom ashyo, tayyor mahsulotni saqlash, qayta ishlash va sotish yo'nalishlari hisobga olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019 yil 14 martdagi «Meva sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari»gi 4239-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni

3. R.X.Ergashev, A.D.Ravshanov, Qosimov J "Meva-sabzavot va uzum yetishtirishning ustuvor yo'nalishlari // "Servis" ilmiy-amaliy jurnal 2020 yil, 1-son 46-51 b. (08.00.00; №2.)

4. Toshmatov R.X. O'zbekiston hududlarida meva-sabzavotchilikni rivojlantirish: metodologiyasi, tahlil va prognoz. Monografiya "LESSON PRESS" 2017 y 124 b.

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari